

CHET TILINI O‘QITISHDA MADANIYATLARARO YONDASHUV: FORS TILI MISOLIDA



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-27-294-299>

Islomov Alisher Hasan o‘g‘li

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
Xalqaro huquq fakulteti 3-bosqich talabasi
alisherislomov.mfa@gmail.com*

Ilmiy rahbar: G. Husainova

JIDU “Sharq tillari” kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fors tilini o‘qitishda madaniyatlararo yondashuvning ahamiyati yoritilib, Maslou ierarxiyasiga asoslangan madaniy modelni taklif etadi. Zamonaviy metodlar fors tilini samarali o‘zlashtirishga ko‘maklashishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *madaniyatlararo muloqot; fors tilini o‘qitish; madaniy kontekst; Maslou ierarxiyasi; kommunikativ yondashuv; aralash ta’lim; madaniy o‘zlik.*

ABSTRACT

The article analyzes the role of intercultural approach in teaching Persian and proposes a Maslow-based cultural model. Modern teaching methods are highlighted as essential for developing intercultural competence and improving language acquisition.

Keywords: *intercultural communication; Persian language teaching; cultural context; Maslow’s hierarchy; communicative approach; blended learning; cultural identity*

АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается значение межкультурного подхода при обучении персидскому языку и предлагается модель на основе иерархии Маслоу. Подчеркивается роль современных методик в повышении эффективности усвоения языка.

Ключевые слова: *межкультурная коммуникация; преподавание персидского языка; культурный контекст; иерархия Маслоу; коммуникативный подход; смешанное обучение; культурная идентичность.*

KIRISH

Madaniyat asrlar davomida shakllanib boradigan “ijtimoiy meros” sifatida ta’riflanib, bir avloddan boshqasiga individual tajribalar bilan boyitilib boradi.

Madaniyat jamiyatlar oʻrtasidagi farqlarni belgilovchi faoliyatlar majmuasi boʻlib, siyosiy yoki biologik hodisa emas, balki jamiyat tomonidan oʻrnatiladigan ijtimoiy xulq-atvor namunalari hisoblanadi. Madaniyat – insoniyat xalqining rang-barang, doimo oʻzgarib boradigan noyob xodisasidir. U eʼtiqodlarni shakllantiradi, gʻoyalarni ulashadi, qadriyatlar hamda urf-odatlariga doir bilimlarni uzatadi. Bularning barchasi esa har bir davlatning oʻz tili orqali ifodalanadi, chunki til madaniyatning ajralmas qismidir. Madaniy kontekst odamlarning muloqot qilish usulini, vaziyat va voqealarga nisbatan qanday idrok shakllanishini aniqlaydi. Shuning uchun ham til madaniyat ichida kommunikatsiya vositasi sifatida muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Jamiyatda madaniyatning mavjudligi umumiy til orqali amalga oshadi. Ayni bir shaxsning madaniyati uning tilni maʼlum bir vaziyatda qanday qoʻllashida namoyon boʻladi. Madaniyat inson tafakkuriga taʼsir qilib, uning xatti-harakatini jamiyat meyorlariga mos ravishda shakllantiradi.

Til, madaniyat va tafakkur oʻrtasidagi bogʻliqlik haqida koʻplab ilmiy qarashlar mavjud. Xususan, Amerikalik antropolog Sapirning(1921) taʼkidlashicha, til, madaniyat va tafakkur bir-biriga oʻzaro bogʻliq tushunchalar boʻlib, madaniy maʼnolar va hayot tarzining merosiy naqshlari til orqali ifodalanadi. Shuning uchun ham tilning madaniy sohadagi oʻrni judayam beqiyosdir.

Fors tili turli lingvistik va madaniy muhitga mansub insonlar oʻrtasida madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida eʼtirof etilgan. Ushbu tilni oʻrganish faqat grammatik shakllarni emas, balki madaniy kontekstni ham tushunishni talab qiladi. Shuning uchun fors tilini oʻrgatishda madaniy kontekstni berish oʻquvchining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda muhimdir. Fors tilini oʻqitish boʻyicha tadqiqotlar madaniy ongini fors tilini oʻqitish dasturlariga kiritish zarurligini koʻrsatadi. Madaniyatni oʻrgatish – oʻquvchilarning ijtimoiy-xulq atvori, munosabati va tilni vaziyatga mos qoʻllash koʻnikmasini rivojlantiradi. Shu sababli oʻquvchilar madaniyatlararo kommunikatsiya boʻyicha yetarli tayyorgarlikka ega boʻlishlar zarur. Koʻplab til oʻqitish dasturlari asosan 4 ta koʻnikma – tinglash; gapirish; oʻqish va yozishni rivojlantirishga qaratilgan, ammo uning madaniyatini oʻrgatish deyarli mavjud emas. Bu esa madaniyatlararo muloqot uchun zarur boʻlgan kontekst tushunchasining shakllanmasligiga olib keladi. Koester va Lustig (2010) nazariyasiga koʻra, kommunikatsiya va madaniyat oʻzaro bogʻliq boʻlib, turli madaniyatlardan boʻlgan shaxslar bir xil vaziyatni talqin qiladi. Samarali madaniyatlararo muloqot uchun madaniyat haqidagi quruq maʼlumotning oʻzi yetarli emas. Oʻquvchi nima uchun va qanday qilib maʼlum xatti-harakatlar sodir boʻlishini anglashi zarur. Madaniyatlararo muloqot qadriyatlar, meʼyorlar, ijtimoiy odatlar kabi murakkab ijtimoiy xatti-harakatlarni talab qiladi. Bunga misol qilib, dravidiya tillari oilasiga mansub boʻlgan tamil tilida bola aksirganida unga nisbatan

نۇرۇ (nu ru – “yuz”) deyiladi, ya’ni “uzoq umr ko’r”, “yuz yil yashagin” degan ma’noda qo’llaniladi. Eron madaniyatida esa الحمد لله yoki شكر را خدا – “Xudoga shukur” deyiladi. Bu misollar madaniy tafovutlarning muloqotga qanday ta’sir qilishini ko’rsatadi.

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya – bu turli madaniyatlarda to’g’ri muloqot qila olish qobiliyati bo’lib, madaniy tafovutlarni tushunish; mos xatti-harakatlarni tanlash hamda yuqori darajadagi interpretatsiya ko’nikmasini talab qiladi. Fors tili qadimdan beri shakllanib kelayotgan til bo’lganligi sababli, uni o’rganuvchilardan keng madaniy bilimlarni talab qiladi. Xususan James Baxter (1983) madaniyatlarni muloqotda kognitiv va affektiv (hissiy) vositalardan foydalanishni taklif qilgan.¹

Maslou inson ehtiyojlar iyerarxiyasi – til o’qitish, xususan, fors tilini chet tili sifatida o’qitishda muvaffaqiyatli qo’llaniladigan nazariy asoslardan biridir. Ushbu iyerarxiya beshta asosiy darajadan iborat bo’lib, keyinchalik muallif tomonidan kognitiv, estetik va transsendensiya ehtiyojlari kengaytirilgan. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, fors tilini o’qitishda har bir daraja madaniy kontekst bilan bevosita bog’liq bo’lib, til o’rganuvchining ehtiyojlarini ketma-ket qondirish orqali til o’zlashtirish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Quyidagi jadvalda Maslouning inson ehtiyojlar iyerarxiyasi kengroq yoritilganligini ko’rishimiz mumkin:

Darajasi	Ehtiyojlar nomi	Fors madaniyatidagi asosiy elementlar	Til o’qitishdagi amaliy misollar
1	Fiziologik ehtiyojlar	چلوکباب (chelo’-kabob); سبزی قرمه (ghorme-sabzi); رشته آش (osh-e reshte); نمک و نان (non va namak)	Ovqat nomlari, choy ichish odobi, “non va tuz” iborasi orqali mehmondo’stlikni o’rgatish
2	Ijtimoiy ehtiyojlar	هفت سفره – نوروز (nauruz); سین (sofre-ye haft-sin), یلدا (yalda), نوازی مهمان (mehmân-navâzi)	Navro’z va boshqa bayramlar, oilaviy ziyofatlar, qarindoshlik munosabatlari

¹ Soomro, S. (2015). The Importance of Culture in Second and Foreign Language Learning. SSRN. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2656713

3	Estetik va kognitiv ehtiyojlar	سعدی (Hofez), حافظ (Sa'di), مولانا (Movlono), نگارگری (xattoti), ایرانی باغ (negorgari), (bogh-e ironi)	She'riyat, xattotlik, miniatyura, Eron bog'lari va me'morchiligi
4	O'zini ro'yobga chiqarish	ایرانی عرفان (erfon-e ironi), فلسفی تفکر (tafakkor-e falsafi)	Tasavvuf, Mavloni va Attor asarlari, axloqiy va falsafiy muhokamalar
5	Transsendensiya	مشترک انسانی های ارزش (arzesh-hâ-ye ensoni-ye moshtarak)	Insoniyatning umumiy qadriyatlarini tushunish, global fuqarolik hissi.

Ushbu tadqiqotning yana bir muhim yangiligi shundaki, Maslou piramidasining hurmat va o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish darajalari orasiga **هویت فرهنگی** (hoviyyat-e farhangi – “madaniy o'zlik”) nomli yangi qatlamning kiritilganligidir. Fors tilini o'rganuvchilar **سین هفت سفره** (sofre-ye haft-sin) tuzish, **فال حافظ** (fol-e Hofez – Hafez fol ochish), ismini forsha talaffuz qilishni yoqtirish kabi harakatlari orqali o'zini eron madaniyatiga mansub deb his qilganda ushbu tilni o'zlashtirish jarayoni 2-3 barobarga tezlashadi va natijada bu jarayon o'quvchining fors tilini chet tili sifatida emas, balki, “ikkinchi shaxsiyatning” ajralmas qismi sifatida qabul qilishiga yordam beradi. Shunday qilib, Maslou iyerarxiyasiga asoslangan ushbu madaniy model fors tilini o'qitishda o'quvchining barcha ehtiyojlarini ketma-ket qondirish orqali til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni to'liq ochib beradi hamda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning samarali yo'lini taklif etadi.²

Erfani (2014) Eron o'qituvchilarining chet tili darslarida qaysi madaniyatni o'qitish kerakligi haqidagi fikrlarini o'rgangan. Bundan maqsad til manbalari va qadriyatlarini o'qitish muhim bo'lsa-da, ko'pchilik o'quvchilar madaniyatlararo ta'lim va tarbiyaga urg'u berganlar, ya'ni o'quvchilarga idrok etish, fikrlash, his qilish va harakat qilish kabi madaniy tushunchalarni tushunish imkonini taqdim etadi. Shuningdek, Jalali va Sa'd (2013) Eron o'qituvchilarining til darslarida madaniyatni o'qitishga nisbatan qarashlarini o'rganganlar. Ular shuni aniqladilarki,

² Abdollahi Parsa, T. (2025). Designing a Persian Cultural Model for Teaching Persian as a Foreign Language. https://jtpsol.journals.ikiu.ac.ir/article_3702.html

ilmiy malaka darajasidan qat’iy nazar, barcha Eron o’qituvchilari madaniyatning til o’rganishga ijobiy va motivatsiya beruvchi ta’sirini birdek anglab yetganlar.³

So’nggi yillarda Markaziy Osiyoda, ayniqsa O’zbekistonda ham fors tiliga bo’lgan qiziqish ortib bormoqda. Mintaqada forsiyzabon davlatlar bilan tarixiy, madaniy va ilmiy aloqalar mustahkam bo’lib kelgan. Shunga qaramay, fors tili ingliz yoki rus tillari kabi keng o’qitilmaydi. Yillar davomida ta’lim jarayonida grammatik-tarjima va lingvistik yondashuv ustun bo’lib kelgan. Ammo hozirgi kundagi zamonaviy ta’lim tizimi yanada faol, kommunikativ va madaniy jihatdan boyitilgan metodlarni talab qiladi hamda ushbu metodlarni ishlab chiqish uchun o’quv dasturlari, ilmiy adabiyotlar chuqur tahlil qilinib, fors tili o’qituvchilari bilan suhbatlar o’tkazilgan. Natijada bir nechta samarali innovatsion yondashuvlar aniqlangan:

- Aralash ta’lim (blended learning) – an’anaviy darslar bilan onlayn mashg’ulotlarni birlashtirish talabalarning faolligi, mustaqil o’qish va onlayn resurslardan foydalanishni kuchaytiradi;

- Kommunikativ til o’qitish – dialoglar, rolli o’yinlar va guruhli muhokamalar orqali o’quvchilar real muloqot ko’nikmalarini rivojlantiradilar;

- Vazifaga asoslangan ta’lim – prezentatsiyalar, madaniy mavzularda matnlar yaratish kabi topshiriqlar tilni amaliy qo’llashni rivojlantiradi;

- Madaniyatni integratsiya qilish – fors poeziyasi, tarixi va an’analarini dars jarayoniga kiritish madaniyatlararo kompetensiyani oshiradi;

- Raqqamli resurslar – elektron kitoblar, ilovalar va audio–video materiallar lug’at boyligining o’sishiga va tinglab tushnish malakasiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

- Ushbu zamonaviy metodlar o’quvchilarning motivatsiyasi va fors tilini o’zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.⁴

XULOSA

Fors tilini o’qitishda madaniyat komponentining yetarlicha e’tiborga olinmaganligi o’quvchilar muloqot ko’nikmalarining to’liq shakllanmasligiga sabab bo’layotgani tadqiqot davomida aniqlandi. Maqola davomida madaniyat, til va tafakkur o’rtasidagi chambarchas bog’liqlik ilmiy misollar orqali yoritilib, Maslou ehtiyojlar iyerarxiyasiga tayangan holda taklif etilgan madaniy model fors tilini o’zlashtirish jarayonini tizimli tashkil etishga xizmat qilishi ko’rsatildi. Shuningdek,

³ Ghaemi, F. (2023). The role and effect of language, emotion, and culture in intercultural communications from Iranian language teachers' perspectives. *Journal of English Language Teaching and Learning*.
https://elt.tabrizu.ac.ir/article_16634_a42eb19b1fcc2bae6ff6b9473189bdf.pdf

⁴ Xolmirzayeva, M. (2025). Modern Approaches to Teaching Persian as a Foreign Language in Central Asia.
[file:///C:/Users/user/Downloads/211-212%20\(11\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/211-212%20(11).pdf)

fors tili uchun samarali bo'lgan zamonaviy metodlar, ya'ni aralash ta'lim kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan topshiriqlar hamda madaniy manbalarni darsliklarga integratsiya qilish – o'quvchilar motivatsiyasini oshirishi va madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda asosiy omillardan ekanligi tahliliy asosda bayon qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra o'quvchi madaniy o'zlikni his qilganida tilni o'zlashtirish jarayoni sezilarli darajada tezlashadi. Shuning uchun, fors tilini o'qitishda lingvistik materiallar bilan bir qatorda madaniy kontekstni bosqichma-bosqich berish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Soomro, S. (2015). The Importance of Culture in Second and Foreign Language Learning. SSRN. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2656713
2. Abdollahi Parsa, T. (2025). Designing a Persian Cultural Model for Teaching Persian as a Foreign Language. https://jtpsol.journals.ikiu.ac.ir/article_3702.html
3. Ghaemi, F. (2023). The role and effect of language, emotion, and culture in intercultural communications from Iranian language teachers' perspectives. *Journal of English Language Teaching and Learning*. https://elt.tabrizu.ac.ir/article_16634_a42eb19b1fcc2bae6ff6b9473189bdf.pdf
4. Xolmirzayeva, M. (2025). Modern Approaches to Teaching Persian as a Foreign Language in Central Asia. [file:///C:/Users/user/Downloads/211-212%20\(11\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/211-212%20(11).pdf)